

O‘ZBEKISTONDA YASHIL ENERGETIKANING ISTIQBOLLARI*Dexqonov Shuxriddin**Xo'jaobod tumani kasb-hunar maktabi fizika fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotni rivojlanishida yashil energetikani o‘rni o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning yashil energetikasining istiqbollari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil energetika, quyosh energiyasi, bioenergiya, gidroenergiya, qayta tiklanadigan energiya, shamol energiyasi.

KIRISH

2019 yilda O‘zbekiston ““Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi”ni qabul qildi. Yaqin o‘n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish O‘zbekistonga ko‘plab bonuslar olib keladi. Hukumat pandemiyadan oldingi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tiklash hamda kelgusi yillarda yanada yuqori o‘sish sur‘atlariga erishishni maqsad qilgan. O‘z navbatida, mamlakatda aholi soni va daromadlari ko‘paymoqda. Bunday sharoitda, turgan gapki, energetika resurslariga bo‘lgan talab ham ortadi. “Yashil iqtisodiyot”ning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi. Bu jihatdan O‘zbekistonning salohiyati ancha yuqori.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg‘i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko‘p. Boz ustiga, “yashil energetika” sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O‘zbekistonda yaqin o‘n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko‘paytirish imkonini beradi. Bu iqtisodiyot uchun mislsiz foydadir.

Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, O‘zbekiston uglevodorod energiyasi - neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag‘ni talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan “yashil energetika”ga o‘tish ming chandon afzal. Axir, butun dunyo shu yo‘lni tanlayapti. E‘tiborlisi, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo‘lib mazkur harakatga qo‘shildi. Mohiyatan olib qaraganda, 2019 yilda qabul qilingan

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi” yurtimizning “yashil taraqqiyot” sari yuz burganini anglatadi.

“Yashil energetika” - qazilma yoqilg‘i sarfisiz, atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarmaydigan va atrof-muhit ekologiyasiga ziyon yetkazmagan holda energiya ta’minotini amalga oshirilishini ko‘zda tutadigan konsepsiyadir. Bunda iste’mol talabini imkon qadar tiklanadigan energiya manbalari evaziga qondirilishi maqsad qilingan. Energetikaning ushbu turi “musaffo energiya” ham deyiladi . “Yashil energetika” atamasi quyidagi texnologiyalarga nisbatan qo‘llaniladi:

- yer va dengizga o‘rnatilgan shamol generatorlari;
- turli quyosh elektrenergetikasi texnologiyalari - binolar va uylarning tomiga o‘rnatilgan quyosh panellaridan tortib quvvati 50 mvt gacha bo‘lgan quyosh elektrostansiyalari;
- o‘simlik moyi yoki o‘tinlarni yoqish hisobidan ishlaydigan generatorlar;
- yer ostidagi issiq suvlar yoki oqimlar hisobidan issiqlik va energiya ishlab chiqaradigan geotermal manbalar;
- daryolarga o‘rnatilgan kichik gidroturbinalar;
- dengiz to‘lqini, suvning ko‘tarilish yoki pasayishidan foydalanib ishlaydigan texnologiyalar.

Ushbu texnologiyalar elektrenergiyani qazib chiqariladigan tabiiy resurslardan foydalanmasdan va atmosferaga chiqarilayotgan SO₂ miqdorini qisqartirish imkonini beradi. Yirik gidroelektrostansiyalar ham shu kabi imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning faoliyati suv, yer va daryo ekotizimiga salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli yirik gidroelektrostansiyalar tomonidan ishlab chiqariladigan elektrenergiya ekologik toza hisoblanmaydi.

XULOSA

Yashil energetika yaqin o‘n yilliklarda butun elektr energetika sanoatini to‘liq o‘rnini bosa olmaydi, lekin sayyoramizni chiqindilardan tozalashdagi yutuq, umuman “yashil” iqtisodiyot sari ulkan qadam va xalq farovonligiga jiddiy tahdid solayotgan iqlim o‘zgarishi jarayonlarini sekinlashtirish yo‘li bo‘lib hisoblanadi. “Yashil” iqtisodiyot maqsadlarini tushunish, unda sayyoramizni tiklash jarayonini boshqarishimiz va natijada har bir insonni yorqin kelajak sari yetaklashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik. - Toshkent.: “Universitet”, 2020. -262 b.
2. Abdukarimov B. “O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish yo‘llari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. A.: AIQI 2023. 172-176.

3. Abdukarimov B., Alimov A. Makroiqtisodiy barqarorlikni taminlashda investitsiyalarni o‘rni. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ jurnali. (47) 2024.

